

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi**

***60412200 – Moliya sohasida boshqaruv ta'lif bakalavriat ta'lif  
yo'naliishing malaka talablari***

**Namangan**

## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- **Namangan davlat universiteti;**

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengashning 202\_\_ yil “\_\_\_\_” dagi \_\_\_\_ sonli yig’ilishida ma’qullangan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 202\_\_ yil “\_\_\_\_” dagi \_\_\_\_ - sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O’zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy- uslubiy hujjat hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tasnifi	4
1.1	Qo’llanish sohasi	4
1.1.1	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi malaka talabining qo’llanishi	4
1.1.2	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat faoliyatlarining ob’ektlari	5
1.2.3	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat kasbiy vazifalari	5
2	60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat kasbiy kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar	7
2.1	Umumiy kompetentsiyalar	7
2.2	Kasbiy kompetentsiyalar	8
	Bibliografik ma’lumotlar	9
	Kelishuv varag’i	10

## **1. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tasnifi**

**60412200 – Moliya sohasida boshqaruv** bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrular taylorlash oliy ta’limning o’quv reja va fan dasturlari asosida kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo’yicha o’qitish kredit –modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kredit-modul tizimining nazariy va amaliy mashg’ulotlarini to’liq o’zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o’tgan shaxsga “bakalavr” malakasi (darjasи), “Iqtisodchi” kvalifikatsiyasi beriladi hamda oliy ma’lumot to’g’risidagi davlat na’munasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1 Qo’llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi Malaka talabining qo’llanilishi.**

Malaka talabi **60412200 – Moliya sohasida boshqaruv** bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

##### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo’nalish bo’yicha malaka talablari o’quv reja va fan dasturlarni sifatli ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolati doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedramudirlari) professor o’qituvchilari;

- ta’lim yo’nalishining o’quv reja va fan dasturlarni o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining va talabalari;

-bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

-oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

-kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

-oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abiturentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar;

#### **1.2. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat yshnalishi bo’yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining tavsifi.**

##### **1.2.1. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruvi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat ta’lim yo’nalishi** – iqtisodiyot sohasidagi yo’nalish bo’lib, u davlat va korporativ moliya tizimi, moliyaviy bozorlar va moliyaviy vositachilik operasiyalari bilan shug’ullanuvchi institutlar, turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo’jalik yuriuvchi

sub'ektlari moliyaviy xizmat tizimi, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, moliyaviy bozorlar professional ishtirokchilari davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy, ishlab chiqarish – iqtisodiy va moliyaviy tahlil xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalar moliyasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi;

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilarini va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

#### **1.2.2. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruva bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining ob'ektlari:**

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;
- O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi;
- ta'lim muassasalari;
- real sektor korxonalari moliyaviy xizmat tizimlari;
- tijorat banklari;
- sug'urta tashkilotlari;
- lizing kompaniyalari;
- fond, valyuta va tovar xom-ashyo birjalar;
- qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari;
- ilmiy-tadqiqot va loyihalash-konstrukturlik institutlari ilmiy loyihalari;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari.

#### **1.2.3. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruva bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari**

- . tashkiliy boshqaruv;
- . ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- . axborot-tahliliy faoliyat;
- . ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- . tadbirkorlik.

#### **1.2.4. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruva bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.**

60412200 – Moliya sohasida boshqaruva bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quydagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Tashkiliy–boshqaruv hamda ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy xujjatlar;
- moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish ishlarini tashkil etish;

- davlat, korporativ moliyaviy muassasalar, korporativ tuzilmalar moliyaviy xizmat tizimi va uy xo'jaliklari moliyaviy faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- davlat, korporativ moliyaviy muassasalar, korporativ tuzilmalar moliyaviy xizmat tizimi alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- hissali, qarzli moliyaviy instrumentlat, qimmtli qog'ozlar hosilaviy instrumentlari sifat tavsiflarini aniqlash, ular qiymatini baholash;
- moliyaviy investitsiyalar va instrumentlardan shakllantirilgan portfellarni samarali boshqarish strategiyasini ishlab shiqish, diversifikatsiyalash va boshqa arbitraj operatsiyalar orqali moliyaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish;
- davlat budgeti va budgetdan tashqari fondlar daromad va xarajatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi yalpi fiscal balansni samaradorlik kontekstda tahlil qilish, monitoringini olib borish;
- davlat va korporativ moliyaviy munosabatlarga oid amaliy muammolar yechimlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish va amaliyotga tadbiq etish jarayonini tashkil qilish;
- moliyaviy muassasalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarirlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqish hamda qarirlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtiroy etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan moliyaviy menejment tizimida foydalanish, xizmat ko'rsatish jarayonlari monitoring va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- mamlakat va alohida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilish, uning samaradorligini baholash va davlat qarzlarini boshqarishga oid optimal qarirlarni qabul qilish;
- davlat va korporativ tuzilmalari aktivlari, passivlari va moliyaviy natijalarini moliyaviy boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini qo'llash orqali ular faoliyatini barqaror rivojlanoshini ta'minlash.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan davlat korporativ boshqaruv tizimida foydalanish, moliyaviy-xo'jalik faoliyati diagnostikasi, monitoringi va samaradorligini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- boshqaruv qarirlarini qabul qilish uchun davlat va real sektor moliyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va tahlil qilish;
- davlat va korporativ sektor korxonalari, moliyaviy vositachilik operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi muassasalar, moliyaviy bozorlarga oid moliyaviy qarorlar qabul qilish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, ichki axborot tizimini yaratish va uning ishslashini boshqarish;

- davlat va korporativ sektor korxonalarini, moliyaviy vositachilik operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi muassasalar, moliyaviy bozorlar faoliyatiga oid o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- davlat korxonalarini, budget va budgetdan mablag' oluvchi, real sektor tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalaridan foydalanish;
- Axborot tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

**Ilmiy –tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy – tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda moliya tizimi va uning zamonaviy bo'g'inlarining rivojlanish ko'rsatkichlariga baho berish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustivor yo'nalishlari mohiyatini tushinish hamda aniqlangan muammo echimini ishlab chiqish;
- davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish moliyaviy imkoniyatlariga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- internet tarmog'ida global va miliy moliya tizimiga eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- moliya tizimi taraqqiyotiga xizmat qiluvchi innovatsion ishlanmalarni transfertini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

**Tadbirkorldik faoliyatida:**

- moliyaviy tadbirkorlik (dillerlik, brokerlik, treyderlik, friilansing, autsoring va b.) turlarining keng spektrida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish;
- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish.

## **2. 60412200 – Moliya sohasida boshqaruv bakalavriat talim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompitentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1.Umumiy kompetentsiyalar:**

- **iqtisodiyot va moliya sohasidagi** davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushinishi, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslarni qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'rsida ilmiy tasavvurga ega bo'lish;

## **2.2.Kasbiy kompetentsiyalar:**

- me'yoriy huquqiy xujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat va korporativ tuzilmalarining moliyaviy faoliyati va u bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy xujjatlarini bilish va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- moliya va sug'urta bozori, kredit tashkilotlari, budget-soliq sohasida qo'llaniladigan turli instrumentlar, usullar, standartlar ishlab chiqish jarayonida qatnashish;

- turli darajadagi budgetlarni yagona hisob orqali boshqarishni, budget difitsitini moliyalashtirish manbalarini, budget daromadlari va xarajatlari ijrosini tashkil etish bo'yicha moliya organlarida ish yuritish;

- davlat budgetini kassali ijro etish hisobini, davlat budgeti yagona hisobvarag'i orqali operatsiyalarni boshqarishni, O'zbekiston respublikasi budget tizimidagi budgetlarni, O'zbekiston respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan o'rnatilgan tartibda kassali ijro etishni amalga oshirish;

- korporativ moliyaviy strategiyani ishlab chiqish, baholash uslublarini bilish va qo'llash;

- turli darajadagi budgetlar daromad va xarajatlarini prognozlashtirish hamda rejorashtirish, budget loyihasini tuzish, ijro etish bosqichlarida davlatning moliyaviy nazorat usullarini bilishi;

- tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha nazorat va moliya organlarining moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

- moliyaviy instrumentlarning keng arsenali sharoitida fond bozorlarida professional ishtirokchi sifatida faoliyat olib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim;

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK:002:651.1/7  
OKC 01.040.01

Guruh T 55

**Tayanch so'zlar:** kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, moliya, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatini baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kredit-modulъ tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Namangan davlat universiteti**



**KELISHILGAN:**


**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  Sh. Yakubov  
202 yil « \_\_\_\_\_ »  
M.O.

**Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti**



**O'zbekiston Respublikasi Markaziy  
bankining Namangan viloyat Bosh  
boshqarmasi**

Boshlig'i  M. M. Raxmonov boshlig'i  Z. Baxriddinov  
202 yil « \_\_\_\_\_ »  
M.O.

**Namangan viloyati iqtisodiyot va  
moliya bosh boshqarmasi**

